

IDISH YUVISH VOSITALARI ZARARLIMI

I.A.Abdurazakova FJSTI assistenti

M.Z.Abdulaliyev FJSTI talabasi

Mamlakatimizda va shaxsan O'zbekiston respublikasi prezidenti SH.Mirziyoev tomonidan insonlar salomatligini saqlash borasida ko'plab me'eriylar xujjatlar qabul qilinmoqda. Oxirgi yillarda inson salomatligini saqlashga, bu borada profilaktik choratadbirlar ishlab chiqishga katta ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi kunda maishiy sohada kimyoviy moddalarning o'rnini ortib bormoqda, jumladan, ulardan idish-tovoqlarni yuvishda ham keng foydalanilmoqda. Bugun har bir oila oshxonasini zamonaviy kimyoviy vositalarsiz tasavvur qila olmaydi. Bir-ikki tomchi kimyoviy modda har qanday idishni tasavvurimizda “top-toza” qiladi. Zamonaviy kimyoviy vosita bilan idish yuvish tez, oson va qulay. Biroq, ularning tarkibidagi rang, xid beruvchi moddalar va boshqa ingredientlar orasida inson salomatligiga putur yetkazadigan moddalarning bo'lishi turli xil kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. SHu tufayli ularning tarkibidagi zararli va zaxarli kimyoviy moddalarni aniqlash, ularning o'rniga nisbatan zaxarsiz ekologik sof moddalarni tavsiya etish, shuningdek, ularni tovar sifatida klassifikatsiyalanishini o'rganish xamda sinflanishini takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri xisoblanadi.

Zamonaviy idish yuvish vositalari kimyoviy nuqtai nazardan sirt aktiv moddalar (SAM-PAV) bo'lib, ular kimyoviy tarkibi bo'yicha anionli, kationli, amfoter va noinogen turlarga bo'linadi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarga qaraganda doimiy ravishda kimyoviy yuvish vositalari ishlatilgan oilaning har bir a'zosi bir yilda 200 grammgacha kimyoviy modda “eydi”, ekologiyaning yomonlashuvi natijasida kelib chiqayotgan allergik, onkologik va boshqa kasalliklarning 70% idish yuvish vositalaridan foydalanish natijasidir (N. Qosimova, 2019, 2021).

SHifokor-gastroenterolog Maksim CHerenkovning ogohlantirishicha gel' bilan yuvilgan idish zudlik bilan kamida 30 soniya ichida oqib turgan qaynoq suvda chayilmasa, kosa yoki tarelka yuzasida qolgan gel' oshqozonga tushadi, natijada odam bir yil davomida bir stakan (250gramm) gel' yeydi. Vaqt o'tishi bilan unda oshqozon-ichak, onkologik va hatto nafas yo'llari kasalliklari paydo bo'ladi.

Hozirgi kunlarda nafaqat kattalar, ayniqsa, bolalarda namoyon bo'layotgan allergik kasalliklarning kelib chiqishi kimyoviy vositalardan keng foydalanish oqibatidir, rang va xid beruvchi sintetik moddalar allergik reaksiya berib, oshqozon-ichak yo'li saratoni, gipertoniya, depressiya, onkologiya bilan yakunlanadi, deydi shifokor Lenure Zuparova. Kantserogen xususiyatga ega bo'lgan sirt aktiv sintetik

moddalar qon bilan tarqalib, butun organizmni zaharlaydi, xujayra membranasini yemiradi, natijada immunitet pasayadi. Yuvish vositasi tarkibidagi hid beruvchi moddalar uchuvchan bo'lganligi sababli nafas yo'llarini zararlaydi, astma kabi kasalliklarga olib keladi. Bulardan tashqari tarkibida kimyoviy vosita bo'lgan oqava suvlar atrof muhitga katta zarar yetkazadi, jumladan, suv hayvonlari va o'simliklarning nobud bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ro'zg'orda ishlatiladigan idishlarni agregat xolati qattiq faza ekanligini inobatga olsak, har qanday idish (agar u kumush yoki oltindan ishlanmagan bo'lsa) sorbent hisoblanib, o'ziga gaz va suyuqliklarni shimib olish xususiyatiga ega. I.Tog'aev ta'biri bilan aytilgan ibora - idishni yetmish marta chayqash ham foyda bermaydi. Idishga suyuqlik (ichimlik yoki ovqat) quyilganda desorbtsiya jarayoni ro'y berib, shimilgan zaxarli modda suyuqlikka o'tadi va uni odam ovqat yoki suyuqlik bilan iste'mol qiladi. Natijada kimyoviy idish yuvish vositasi qo'llanilgan oila a'zolari sekin asta zaxarlanib boradi. Zaxarli modda miqdori kummulatsion nuqtaga yetgach, turli organlarda turli kasalliklar keltirib chiqarishi tabiiy.

Xulosa qilib aytganda kimyoviy idish yuvish vositalarining kimyoviy tarkibini o'rganish asosida ularni tovar sifatida sinflanishi va sertifikatlanishi orqali ularni tashqi iqtisodiy faoliyatda belgilangan tartibda eksport va import qilinishiga; tannaxlari asosida to'g'ri kodlar belgilash va sertifikatlashni tartibga solish, ayniqsa, ular asosida belgilangan to'lovlarni to'g'ri undirishni yo'lga qo'yish va piravordida mamlakatni iqtisodiy hamda ekologik himoya qilish imkonini yaratadi.